

SAID AHMADNING “JIMJITLIK”ROMANIDAGI DAVR SIYOSATIGA OID
TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILIGA DOIR

Yo’ldashev Ibrohim Jo’rayevich

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti
filologiya fanlar doktori ,professor.*

E-mail: ibrohimyuldashev0101@gmail.com

Raxmatullayeva Nargiza Dilmurod qizi

Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti “O’zbek tili va adabiyoti

“ yo’nalishi 1-bosqich talabasi.

E-mail: nargizarahmatullayeva387@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o’zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Said Ahmadning”Jimjitlik” romanida qo’llanilgan urushdan keyingi davr siyosati va ijtimoiy hayotiga oid terminlarning tahliliga bag’ishlandi.Maqolada tilshunoslik asosida ushbu terminlarning leksik ma’nolari va kontekstual qo’llanilishlari tahlil qilindi .Urushdan keyingi sovet davri siyosiy muhitida shakllangan terminlarning asardagi badiiy vazifasi ,ularning metaforik va ramziy ma’nolari ,shuningdek,qaysi tillardan (masalan,arab tilidan)kirib kelgani va hozirgi kunda qanday atalishi (o’zbek tilidagi zamonaviy ekvivalenti)ko’rib chiqiladi.Tahlil natijasida ,Said Ahmadning til uslubi orqali jamiyatdagi asosiy bosim va insoniy qadriyatlarning buzilishini qanday ochib bergani misollar bilan asoslandi.Maqola tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishmasida joylashgan bo’lib ,o’zbek nasrida siyosiy terminologiyaning badiiy transformatsiyasini o’rganishga qaratilgan.Tadqiqot natijalari davr adabiyotida tilning siyosiy rolini tushunishga yordam beradi.

Kalit so’zlar:Said Ahmad,Jimjitlik,semantik tahlili,so’z boyligi ,badiiy tafakkur,so’zlar etimologiyasi

Annotation:This article is dedicated to the analysis of terms related to the post -war era’s politics and social life used in the story novel “Jimjitlik”by Said Ahmad ,a prominent representative of Uzbek literature .The work depicts the cooling of human relations in post -war rural society.in the article ,based on the methods of lexicology and semantics in linguistics , the lexical meanings ,semantic changes ,and contextual usages of these terms are analyzed.The artistic function in the work of terms formed in the political environment of the post-war Soviet era,their metaphorical and symbolic meanings ,as well as from which languages (for example , from Arabic)are considered.As a results of the analysis ,how Said Ahmad revealed the political pressure in society and the the disruption of human values through his language style is substantiated with examples.The article is located at the intersection of linguistics and literary studies,aimed at studying the artistic transformation of political terminology in Uzbek prose .The research results helps to understand the political role of language in era literature and create a basis for further scientific works.

Key words:Said Ahmad,Jimjitlik,semantic analysis,vocabulary/lexical richness,artistic thinking ,etymology of words.

Аннотация. . Данная статья посвящена анализу терминов, связанных с политикой и социальной жизнью послевоенного периода, использованных в романе «Жимжитлик» известного представителя узбекской литературы Саида Ахмада. В статье на основе методов лексикологии и семантики лингвистики анализируются лексические значения этих терминов, их семантические изменения и контекстуальное применение. Рассматривается художественная функция терминов, сформировавшихся в политической среде советского периода после войны, их метафорические и символические значения, а также из каких языков (например, из арабского) они заимствованы и как они называются в настоящее время (современные эквиваленты в узбекском языке). В результате анализа примерами обосновывается, как через языковой стиль Саида Ахмада раскрываются основные давления в обществе и нарушение человеческих ценностей. Статья находится на стыке лингвистики и литературоведения и направлена на изучение художественной трансформации политической терминологии в узбекской прозе. Результаты исследования помогают понять политическую роль языка в литературе того периода.

Ключевые слова .Саид Ахмад «Жимжитлик» семантический анализ словарный запас художественное мышление етимология слов.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Jimjitlik"romani ilk bora 1986-1987-yillarda "Sharq yulduzi"jurnalida davomli e'lon qilingan .Bu romanda 80-yillarning birinchi yarmidagi hayot haqiqati Mirvali Rixsiyev direktorlik qilayotgan qishloq misolida ochib bergan .Yozuvchi yuzaki olib qaraganda bir me'yorda ,sokinlik bilan o'z yo'lidan beozor taraqqiy etib borayotgandek tuyuluvchi hayotimizdagi har xil illatlarni ,keskin ziddiyatlarni ,alg'ov-dalg'ovliklarni dalillar bilan yoshlarga yaqqol ochiqlab bergan .

Ushbu roman yovuzlik bilan ezgulikning abadiy kurashiga bag'ishlangan .Jimjitlik romanida sovet davridagi rahbarlarning chirkin hayoti ezilgan oddiy xalqning turmush tarzi uzoq yillar rahbarlar tazyiqida qo'l ostida tahlikada yashagan ,ayoli va farzandidan ayrilib uyiga qaytgan Tolibjon ,boylik va mansab uchun har qanday jirkanchlikka tayyor xotinboz Mirvali ,otasi o'ldirilib onasi Mirvali tomonidan tortib olingan Azizbek kabi insonlar taqdiri hikoya qilinadi .Asarda turg'unlik davri illatlari mukammal tarzda ochib berilgan .Asarda sirtan tinch va sokin ko'ringan sho'ro davrining ichki dramalari tuzum inqirozi butun keskinligi ,shiddati bilan ko'rsatilgan .Asardagi deyarli barcha yetakchi personajlar fojiaiy qismat egalaridir.Roman o'zining asov bebosh ifoda tarzi bilan jozibali hisoblanadi.

Said Ahmad asarlarida qo'llangan shevaga xos so'zlar,ayrim o'zlashma so'zlar ishlatilishi bugungi zamonaviy nutqda tobora kamayib bormoqda va u hozirgi zamon muloqotida nisbatan kam qo'llaniladigan so'zlar sirasiga aylanib qolmoqda .Buni esa quyida keltiriladigan misollar orqali ham ko'rishimiz mumkin.Masalan asarning birinchi bobida keltirilgan *faryod* so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "nola " ,"qichqiriq "degan

ma'nolarni anglatadi .Asosan badiiy adabiyotda keng qo'llandi.

Fors tilidan o'zlashgan **qabriston** so'zi esa (qabr-arabcha "qabr"-qabr ,iston-joy" degan ya'ni" qabrlar joyi" degan ma'nolarni bildiradi.Ushbu so'z O'rta Osiyo tillariga fors orqali kirib kelgan.Mazkur so'z o'zbek tili izohli lug'atida mavjud.**Qumg'on** so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib ,”suv idishi”degan ma'noni bildiradi .Asosan asosiy maqsadi suv ,choy qaynatish yoki saqlash uchun maxsus idish hisoblanadi .Hozirgi zamonaviy ekvivalenti choynak ,ko'za so'zlarini almashtirib qo'llasak bo'ladi.**Partiya uchiyoti** (partiya –fransuzcha so'zdan ,uchiyot esa rus tilidan o'zlashgan bo'lib ,partiya ro'yxati yoki hisobi degan ma'noni bildiradi.Bular orqali ro'yxatdan o'tkazilgan a'zolar nazorat ostida bo'lgan ,ya'ni sovet davridagi siyosiy qamoqni ramziy ifodalaydi.O'sha davrda kommunistik partiya a'zolarining faoliyati ,sodiqligi va hujjatlarni nazorat qilish uchun ishlatilgan.Hozir bizda esa electron ro'yxat deb yuritiladi.**Turma** so'zi rus tilidan kirib kelgan bo'lib “qamoq ,zindon,mahbusxona “degan ma'nolarni bildiradi.Hozirgi muqobili qamoqxonadir.Turma so'zi asosan ko'proq adabiy yoki eski uslubda qo'llangan.Asardan misol :U siyosiy ayblov bilan turmaga tushdi.Keyingi so'zimiz **g'ubor** forschadan kirib kelgan bo'lib ,”chang” “to'zon “,”havodagi mayda zarralar “ degan ma'noni bildiradi.O'zbek tiliga o'rta asrlar davomida fors –tojik adabiyoti orqali kirib kelgan va klassik o'zbek adabiyotida (Alisher Navoiy ,Bobur)asarlarida “gard “so'zi keng qo'llangan.**Yetimqishloq** so'zi murakkab qo'shma so'z bo'lib (arabchadan kirib kelgan)yetim- onasiz yoki otasiz bola degan ma'nosini bildiradi .Zamonaviy ekvivalenti chekka aholi punkti, chekka qishloq,tog'li qishloq kabi atamalar bilan almashtirilishi mumkin .**Kishan** so'zi forscha zanjir so'zidan olingan bo'lib “temir halqa” degan ma'noni bildiradi .Bu so'z o'rta fors tilidan kelib chiqqan va eroniy ildizlarga borib taqaladi ,”bog'lamoq,ulamoq “bilan bog'liq .Asosan otlarning old oyoqlariga solinadigan yoki mahbuslarning qo'l-oyoqlariga taqiladigan zanjir hisoblanadi.

Chirog' so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib ,asli shakli “charog”dir.O'zbek tiliga birinchi bo'g'inidagi “a”tovushi “I”ga o'zgargan holda kirgan .Bu so'z “yorug'lik”yoki”chiroq”ma'nosini bildiradi va qadimiy sharq tillarida keng tarqalgan.O'zbek izohli lug'atida bu so'z uy-ro'zg'or asbobi sifatida xonani yoritish uchun ishlatiladigan buyumni anglatadi .Masalan ,osma chiroq ,neon chiroq yoki jin chiroq .Asardan ham kuzatishimiz mumkin.

-Nima qilib o'tiribsan ,chirog'im? Bu tog'larga ko'pam tikilaverma ,mahliyo bo'laverma bu tog'larda qashqirlar bor...

Peshonabog'so'zi o'zbek tilida kompozitsion so'z bo'lib ,fors-tojik tillardan kirib kelgan .Peshona –boshning qoshdan soch o'sadigan joygacha bo'lgan qismi.Bog' esa bog'lash ma'nosida .Shuning uchun “peshonabog”so'zma-so'z “peshonag bog'lash “degan ma'noni bildiradi va to'g'ridan –to'g'ri marosim nomiga aylangan.Bu an'ana o'zbek xalq urf-odatlarining qadimiy qatlami bilan bog'liq bo'lib ,asosan islomgacha davr va zardushtiylik ta'siridagi himoya ramzlaridan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi.Qizil ip yoki mato bog'lash –yomon ko'z hasad,yovuz ruhlardan himoya qilish ramzi hisoblanadi.



Qopqon so'zi arabcha so'zdan kirib kelgan bo'lib "tuzoq","hiyla –nayrang "degan ma'nolarini bildiradi.Qadimiy turkey yozuvlarda kapkan shaklida uchraydi.Asosan qadimiy ovchilik madaniyati bilan bog'liq bo'lib,turkiy xalqlarning qadimiy hayot tarzi (ov ,tuzoq qo'yishni aks ettiradi)

Xulosa qilib aytganda ,romanning nomlanishi ramziy xarakterga ega .Yozuvchining fikricha ,barchamiz yashayotgan hayot to'laligicha shovqindan iborat.Har bir inson ana shu shovqinlar ichidan o'ziga mos ohang topa olishi yoki topa olmasligi o'ziga bog'liq .Romanda tilga olingan asosiy voqealar zamon va makon jihatdan sobiq SSSR ning parchalanib ketishi arafasidagi bir tizimdan ikkinchi yangi davrga o'tish arafasini qamrab olgan.Asarda "Qizil imperiya "ning rang –barang nayranglari tufayli hayoti fojiali kechgan kishilar taqdiri bo'yab bejalmasdan ,haqqoniy ko'rsatilgan.Bu asar nafaqat o'tmishni tushunishga ,balki bugungi hayotda adolat va insoniy qadriyatlar haqida fikr yuritishga yordam beradi.O'quvchiga ham ruhiy ozuqa bo'la oladi,zero undagi haqiqatlar doimo barhayot va teran.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati . IV jildli II jild. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti,2019. - 433b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati . 5jildli . : O'zbekiston nashriyoti ,2021.-221b
3. Said Ahmadning "Jimjitlik"romani.G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,2016 . B320
4. Said Ahmadning "Jimjitlik "asari badiiy –falsafiy xususiyatlari .(2022)
5. O'zbek tilining izohli lug'at. 6 jildli. 3-jild. – T . : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi , 2022. - 712 b . 0 ”